

VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2023-yil yanvar-dekabr oylarida viloyatningning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **2 865,5** mln. AQSh dollariga yetdi va 2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **500,0** mln. AQSh dollariga, yoki **21,1 %** ga ko'paydi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2023-y. **2 865,5** +21,1 %
(2022-y. **2 365,5**)

 **Saldo**
2023-y. – **1 373,1**
(2022 y. – **1 092,4**)



Eksport

2023-y. **746,2** + 17,2 %
(2022-y. **636,6**)

 **Tovarlar:** **703,6**
 **Xizmatlar:** **42,7**




Import

2023-y. **2 119,3** +22,6%
(2022-y. **1 729,0**)

 **Tovarlar:** **2 114,5**
 **Xizmatlar:** **4,8**

SAMARQAND VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-dekabr, mln. AQSh dollarari, ulushi, % da)





Samarqand viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 991,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi 376,9 mln. AQSh dollarari, import hajmi esa 614,5 mln. AQSh dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YeoIIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiyligini iqtisodiy hudud shakllantirilgan.

**SAMARQAND VILOYATINING SHAHAR VA TUMANLAR
KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI**
*(2023-yil yanvar-dekabr)**

| | Hajm mln. AQSh dollarlari | O'sish sur'ati, % da | Ulushi, % da |
|---------------------------|------------------------------------|----------------------------|-----------------|
| Samarqand viloyati | 2 865,5 | 121,1 | 100,0 |
| Samarqand shahri | 1 574,7 | 129,1 | 55,0 |
| Kattaqo'rg'on shahri | 50,4 | 182,1 | 1,8 |
| tumanlar: | | | |
| Oqdaryo | 45,3 | 94,5 | 1,6 |
| Bulung'ur | 25,1 | 108,1 | 0,9 |
| Jomboy | 247,9 | 97,8 | 8,7 |
| Ishtixon | 22,8 | 74,5 | 0,8 |
| Kattaqo'rg'on | 156,4 | 4,0 m. | 5,5 |
| Qo'shrabot | 7,0 | 88,4 | 0,2 |
| Narpay | 42,3 | 157,1 | 1,5 |
| Payariq | 19,1 | 110,0 | 0,7 |
| Pastdarg'om | 68,0 | 90,2 | 2,4 |
| Paxtachi | 13,5 | 62,2 | 0,5 |
| Samarqand | 204,8 | 104,6 | 7,1 |
| Nurobod | 27,8 | 139,9 | 1,0 |
| Urgut | 203,4 | 108,5 | 7,1 |
| Toyloq | 142,2 | 82,9 | 5,0 |



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulush Samarqand shahri (55,0 % yoki 1 574,7 mln. AQSh dollar), eng quyi ulush esa Qo'shrabot tumani (0,2 % yoki 7,0 mln. AQSh dollar) hissasiga to'g'ri keldi.



SAMARQAND VILOYATINING EKSPORTI

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Viloyatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar tomonidan 746,2 mln. AQSh dollari qiymatidagi (*2022-yilning mos davriga nisbatan 117,2 % ni tashkil etdi*) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023-yil yanvar-dekabr, ulushi % da)





Samarqand viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rnlarda TIF TN) bilan birlashtirilishda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rnlarda – XSST) ishlataladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtaida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

**SAMARQAND VILOYATINING HUDUDLAR
KESIMIDA EKSPORTI**
(2023-yil yanvar-dekabr)*

| | Hajm mln. AQSH dollarlari | O'sish sur'ati, % da | Ulushi, % da |
|---------------------------|------------------------------------|----------------------------|-----------------|
| Samarqand viloyati | 746,2 | 117,2 | 100,0 |
| Samarqand shahri | 326,3 | 131,5 | 43,7 |
| Kattaqo'rg'on shahri | 33,7 | 2,0 m. | 4,5 |
| tumanlar: | | | |
| Oqdaryo | 23,0 | 82,7 | 3,1 |
| Bulung'ur | 16,1 | 97,6 | 2,2 |
| Jomboy | 97,8 | 157,6 | 13,1 |
| Ishtixon | 17,2 | 79,4 | 2,3 |
| Kattaqo'rg'on | 8,3 | 55,9 | 1,1 |
| Qo'shrabot | 2,6 | 82,9 | 0,4 |
| Narpay | 3,1 | 4,8 m. | 0,4 |
| Payariq | 12,2 | 97,3 | 1,6 |
| Pastdarg'om | 15,9 | 91,7 | 2,1 |
| Paxtachi | 9,5 | 57,5 | 1,3 |
| Samarqand | 73,6 | 100,8 | 9,9 |
| Nurobod | 3,1 | 4,8 m. | 0,4 |
| Urgut | 51,7 | 90,0 | 6,9 |
| Toyloq | 19,2 | 71,1 | 2,6 |



Eng yuqori hajm,
mln. AQSh dollarari



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri 43,7 % ulush bilan 326,3 mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Qo'shrabot tumani 0,4 % ulush bilan 2,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.




SAMARQAND VILOYATINING IMPORTI

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida import hajmi 2 119,3 mln. AQSh dollarini va 2022-yilning mos davriga nisbatan 122,6 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng yuqori ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (36,2 %), kimyoiy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar(24,3 %) hamda sanoat tovarlari (22,3 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.



XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI (2023-yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)




To varlar importi dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 388,2 mln. AQSh dollariga ko‘paydi va 2 114,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar 4,8 mln. AQSh dollariga yetdi.

**SAMARQAND VILOYATINING TUMANLAR
KESIMIDA IMPORTI**
(2023-yil yanvar-dekabr)


| | Hajm mln. AQSh dollarlari | O'sish sur'ati, % da | Ulushi, % da |
|---------------------------|------------------------------------|----------------------------|-----------------|
| Samarqand viloyati | 2 119,3 | 122,6 | 100,0 |
| Samarqand shahri | 1 248,5 | 128,5 | 58,9 |
| Kattaqo'rg'on shahri | 16,8 | 151,4 | 0,8 |
| tumanlar: | | | |
| Oqdaryo | 22,3 | 110,7 | 1,1 |
| Bulung'ur | 9,0 | 134,3 | 0,4 |
| Jomboy | 150,1 | 78,4 | 7,1 |
| Ishtixon | 5,6 | 62,5 | 0,3 |
| Kattaqo'rg'on | 148,1 | 6,0 m. | 7,0 |
| Qo'shrabot | 4,3 | 92,1 | 0,2 |
| Narpay | 20,9 | 3,6 m. | 1,0 |
| Payariq | 6,8 | 144,0 | 0,3 |
| Pastdarg'om | 52,1 | 89,8 | 2,5 |
| Paxtachi | 4,0 | 77,1 | 0,2 |
| Samarqand | 131,2 | 106,9 | 6,2 |
| Nurobod | 24,7 | 128,4 | 1,2 |
| Urgut | 151,7 | 116,7 | 7,2 |
| Toyloq | 122,9 | 85,1 | 5,8 |



Eng yuqori hajm,
mln. AQSh dollarlari



Eng quyi hajm,
mln. AQSh dollarlari



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri 58,9 % ulush bilan 1 248,5 mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Paxtachi tumani 0,2 % ulush bilan 4,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.